O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI
SAMARQAND TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

140300, Samarqand t., Gulobod qo’rg’oni.

2022 - yil 11 - oktabr 264-7-103-Q/22 Samarqand tuman hokimligi

Samarqand tumanidagi 18 va 19-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlari atrofida yo‘l belgilarini o‘rnatilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 172-son qarori talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, tuman IIB YHXBning 2022-yil 26-avgustdagi 52/1791-sonli va tuman maktabgacha ta’limi bo‘limining 2022-yil 11-avgustdagi 01/01-08-691-sonli xatlarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand tumani IIB YHXBning 2022-yil 26-avgustdagi 52/1791-sonli hamda maktabgacha ta’limi bo‘limining 2022-yil 11-avgustdagi 01/01-08-691-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand tumanidagi 18 va 19-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlari atrofida transport vositalarining harakatlanish tezligini 30 km. soatga cheklash to‘g‘risidagi 1.21 (tezlikni vaqtinchalik cheklash) yo‘l belgisi o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

3. Samarqand tumani ichki ishlar bo‘limi (A.Raxmatov), tuman

Obodonlashtirish boshqarmasi (F.Djumayev) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (S.Aliyev) qonunchilikda belgilangan tartibda maktabgacha ta’lim tashkilotlari atrofida tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Samarqand tumani ichki ishlar bo‘limi (A.Raxmatov)ga ushbu hududlarda harakatlanuvchi transport vositalari tomonidan mazkur yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilinishini hamda harakat xavfsizligini ta’minlash choralari ko‘rib borish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror “Gulobod tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va bir kun muddatda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari (F.Ganiyev, O.Abdullayev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Usmanov**